





**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-  
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA  
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 1-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI  
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ  
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

**Google Scholar**



**ResearchGate**

**zenodo**



**ADVANCED SCIENCE INDEX**



**Directory of Research Journals Indexing**

**www.innoworld.net  
O'ZBEKISTON-2026**



**Volume 3 Issue 2 | 2026 |**

**+99833 5668868 | @Anvarbek\_PhD**

**Page | 2**

**« ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR » NOMLI  
ILMIY, MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING 2020 YIL 2-MART KUNGI «ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YILI»DA AMALGA OSHIRISHGA OID DAVLAT DASTURI TO'G'RISIDA»GI FARMONIDA KO'ZDA TUTILGAN VAZIFALARNI IJROSINI TA'MINLASH MAQSADIDA «INNOVATIVE WORLD» MCHJ TOMONIDAN TA'SIS ETILGAN «ORIENTAL JOURNAL ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY JOURNAL (OJAMR)» ILMIY-USLUBIY JURNALINING (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI AXBOROT VA OMMAVIY KOMMUNIKASIYALARNI RIVOJLANTIRISH AGENTLIGINING 138572-SONLI GUVOHNOMA HAMDA ISSN 3030-3079) "ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR" NOMLI ILMIY, MASOFAVIY RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ONLINE KONFERENSIYASINI E'LON QILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMI ZENODO, OPEN AIRE, OPEN ACCESS VA INTERNET ARCHIVE BAZALARIDA INDEKSLANADI. KONFERENSIYA TO'PLAMIGA DOI RAQAMI BERILADI.

KONFERENSIYA TO'PLAMIGA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA MAQOLALAR QABUL QILADI:

1. ANIQ FANLAR
2. TABIIY FANLAR
3. TEXNIKA FANLARI
4. PEDAGOGIKA FANLARI
5. IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR
6. TIBBIYOT FANLARI
7. IQTISOD FANLARI
8. QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

ESLATMA! KONFERENSIYA MATERIALLARI TO'PLAMIGA KIRITILGAN MAQOLALARDAGI RAQAMLAR, MA'LUMOTLAR HAQQONIYLIGIGA VA KELITIRILGAN IQTIBOSLAR TO'G'RILIGIGA MUALLIFLAR SHAXSAN JAVOBGARDIRLAR.



## Yashil iqtisodiyot sharoitida agrotadbirkorlik sub'yektlarida innovatsion faoliyatni ahamiyati

**Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich**

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

[egambergiyevabdujabbor1@gmail.com](mailto:egambergiyevabdujabbor1@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida agrotadbirkorlik sub'yektlarida innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari hamda uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanish, energiya tejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalarni joriy etish orqali agrobiznes sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, innovatsion infratuzilma, raqamlashtirish, "aqlli qishloq xo'jaligi" (smart agriculture), suv va yer resurslarini tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda chiqindisiz ishlab chiqarish mexanizmlarining samaradorlikka ta'siri baholanadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida agrar sohani barqaror rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, milliy strategiyalar va xalqaro tashkilotlar, jumladan, Food and Agriculture Organization (FAO) tashabbuslari hamda ilg'or xorijiy tajribalar asosida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari o'rganiladi. Tahlil natijalariga ko'ra, innovatsiyalarni joriy etish agrotadbirkorlik sub'yektlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, qo'shilgan qiymatni ko'paytirish, bandlikni kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim omili ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot yakunida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida agrobiznesni innovatsion rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar.** yashil iqtisodiyot, agrotadbirkorlik sub'yektlari, innovatsion faoliyat, agrar innovatsiyalar, barqaror rivojlanish, resurs tejovchi texnologiyalar, raqamlashtirish, ekologik samaradorlik, raqobatbardoshlik, investitsiya mexanizmlari, smart agriculture, xalqaro tajriba.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashning davlat darajasida e'tibor qaratilishi zahirida tadbirkorlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda amaliy natijasini amalda ko'rsatmoqda. Shu tariqa bugungi kunda tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab quvvatlashda imtiyozlar, jumladan sub'sidiyalar, soliq va bojxona imtiyozlari, sug'urtaviy himoyalash masalalari, maslaxat va davlat organlari rahbarlari bilan uchrashuvlar asosida muammolarni hal etishda yordam kabilar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizning birinchi iqtisodiyoti hisoblangan agrar sohadagi islohatlar namunali darajada deb aytish mumkin. Yangi O'zbekistonni barpo etishdagi uzoq muddatli harakatlar va taraqqiyot strategiyalarini qonun osti hujjatlar doirasi ishlab chiqish barobarida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilgan.[1] Darhaqiqat bunday strategiyalarni qabul qilish barobarida agrar sohasini rivojlantirishda innovatsiyalarni keng joriy etish o'z dolzarbligini namoyon etmoqda.

Jumladan O'zbekiston Respublikasida ham innovatsion faoliyatni amalga oshirish tartib tamoyillarini belgilovchi 2020- yil 24- iyuldagi "Innovatsion faoliyat to'grisida"gi 630-qonuni qabul qilingan. Qonunning 4-modda. Innovatsion faoliyatning asosiy prinsiplari etib quyidagilar belgilangan:

- innovatsion faoliyatning erkinligi;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashdan teng foydalanilishini ta'minlash;
- innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning oshkoraligi va aniq yo'naltirilganligi;
- raqobatni rivojlantirishga ko'maklashish;
- axborotni erkin almashish;
- innovatsion faoliyat natijasida yaratilgan intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilish;
- fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, atrof-muhitga zarar etkazmaslik.

Shundan kelib chiqib aytish mumkingi boshqa sohalar kabi agrotadbirlik faoliyatida joriy qilingan innovatsiyalar erkinligi va yaratilgan intellektual mulk huquqiy muhofaza qilish kafolatlanadi.[2] Bu har bir mamlakatda innovatsion rivojlanish yo'nalishi samarali tashkil etishda davlatlar tomonidan tartibga solish mexanizimi deb qaraydigan bo'lsak dunyo miqiyosida ayniqsa agrar sohani qo'llab-quvvatlash sohani innovatsion rivojlanishida jahon mamalakatlari tajribalarini ommalashtirishga komaklashuvchi FAO (Food and Agriculture Organization) Birlashgan millatlar tashkilotining ozig-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yilgan.

FAO tashkilotining tarkibiy tuzilmasida innovatsiyalarni joriy etishga ko'maklashish va boshqarish bo'limiga asos solingan bolib uning rahbari Бенсан Жан Мартен hisoblanadi. Kanadaning Kvebek shahrida yangi tashkil etilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining birinchi sessiyasida BMTning ixtisoslashgan agentligi sifatida Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tashkil etildi. FAOning vaqtinchalik bosh qarorgohi Vashingtonda joylashgan edi.

FAO faoliyati qishloq xo'jaligini rivojlantirishga ko'maklashish, ovqatlanishni yaxshilash va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash orqali dunyoda qashshoqlik va ocharchilik darajasini pasaytirishga qaratilgan – har bir inson faol va sog'lom hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlariga doimo ega bo'lishini ta'minlashdir. FAO neytral forum va bilim va axborot manbai sifatida ishlaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va o'tish davridagi mamlakatlarga qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligini modernizatsiya qilish va yaxshilashga yordam beradi.[3]

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha halqaro tashkilot tomonidan turli amaliy ishlar amalga oshiriladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan Sirdaryo, Pop, Kitob va Dehqonobod o'rmon xo'jaliklarida amalga oshirilayotgan "O'zbekistonning tog'li va vodiylar hududlarida o'rmonlarni barqaror boshqarish" loyihasi doirasida trening tashkil etildi. Trening mashg'ulotlarida o'rmon xo'jaligi xodimlari, fermer va tadbirkorlardan iborat 100 dan ortiq ishtirokchi GIS-

texnologiyalaridan foydalangan holda innovatsion usullar asosida o'rmon va yaylov hududlarini inventarizatsiya qilish bo'yicha qatnashdi<sup>1</sup>.


Agrar sohaga innovatsilarni joriy etish sohaning uzoq muddatli muvoffaqiyati uchun asosiy strategik yo'nalish hisoblanadi (1-rasm).



**1-rasm. Agrotadbirkorlik faoliyatida innovatsiyalarni joriy etishning ilk mexanizmi**

Agrotadbirkorlikda asosan mahsulot innovatsiyasi, jarayon (texnologik) innovatsiya va xizmat ko'rsatish innovatsiyalar joriy etish uchun qulaylik mavjud. Yuqorida keltirilgan innovatsiyani joriy qilishning ilk mexanizimi asosan mahsulot innovatsiya yo'nalishiga oid hisoblash mumkin yoki xizmat ko'rsatish innovatsiyalarni ham shu mexanizm kabi yani maqsadga ko'ra loyihani ishlab chiqib uni to'liq joriy etishdan oldin sinov tajribani o'tkazgandan so'ng amalga oshirish maqsadli hisoblanadi. [4]

Umuman olganda innovatsion muhitni tashkil etish chora-tadbirlari asosan sifatli tashkil qilish mezonlari va innovatsion jarayonlarni rivojlanish darajasiga muvofiqligi hamda innovatsion faoliyat intensivligi bog'liq (2-rasm). [5]



**2-rasm. Hududiy innovatsion tizimni shakillanish tamoyili**

Ushbu tamoyil ko'ra tadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishda innovatsion salohiyat va innovatsion faoliyat elementlar tarkibidan samarali foydalanishni lozim. Ayniqsa innovatsion infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish belgilangan maqsadlarga erishiladi. Bu borada ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki har bir taqiqotda innovatsion tizim shakillanishi borasida turli yondashuvlar keltirib o'tilgan buning asli sababi sifatida turli davrlarda innovatsion rivojlanishda shart-sharoitlar va qonuniyatlar turlicha.[6] Innovatsion tamoyillar borasida rossiyalik olim Kulagin quyidagilarni asosiy yo'nalishlar sifatida belgilagan: ilmiy-texnik yangiliklarni joriy etish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va institutsional islohotlar. Bunday yo'nalish yuqorida keltirilgan tamoyilga mazmunan bir xil bo'lsada Kulagin innovatsion infratuzilma va resurslardan foydalanishni inobatga olmagan. [7]

Bizningcha innovatsion salohiyat va innovatsion faoliyat bir biriga chambarcham bo'g'larga holda innovatsion rivojlanish amalga oshirilsa shundagina innovatsion rivojlanish stragiyasini samarali tashkil etishga erishiladi.[8]

Rivojlangan mamlakatlarda ham agrotadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlantirishni izchil amalga oshirishda aniq belgilangan strategik chora-tadbirlar asosida amalga oshirilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki rivojlangan mamlakatlarda agrotadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning strategik maqsadlari asosan resurslardan samarali foydalanish, resurs sarfini kamaytirish va texnologik etakchilikni kuchaytirishdan iborat hisoblanadi (1-jadval).[9]

**1-jadval**

| <b>Davlat</b> | <b>Innovatsion yondashuvlar</b>                                                      | <b>Strategik ahamiyati</b>                                   | <b>Manba</b> |
|---------------|--------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>AQSH</b>   | Zamonaviy texnologiya: GPS, dronlar va sun'iy yo'ldosh texnologiyalari qo'llaniladi. | Resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirish. | USDA.gov     |

**Rivojlangan davlatlarda agrotadbirkorlikni innovatsion rivojlantirishning strategik xususiyatlar**

|                     |                                                                                         |                                                                                     |             |
|---------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| <b>Niderlandiya</b> | Vertikal dehqonchilik, akvaponika texnologiyalari, kam resurs bilan yuqori hosil olish. | Kam resurslar bilan maksimal mahsuldorlik.                                          | WUR.nl      |
| <b>Isroil</b>       | Tomchilatib sug'orish texnologiyalari, suvni tejashga qaratilgan innovatsiyalar.        | Suv tanqisligiga qaramay barqaror hosildorlikni ta'minlash.                         | Netafim.com |
| <b>Xitoy</b>        | Raqamlashtirish, "aqlli fermalar" va robotlashtirish texnologiyalari.                   | Global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va texnologik etakchilikni kuchaytirish. | FAO.org     |
| <b>Braziliya</b>    | Tropik qishloq xo'jaligi tadqiqotlari, biomassani optimallashtirish.                    | Tropik hududlarda yuqori hosildorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash.          | Embrapa.br  |

AQSH va Xitoy mamlakatlarida qishloq xo'jaligi sohasida innovatsiyalar joriy etishning raqamli texnologiyalar keng qo'llash amaliyoti yo'lga qo'yilgan bu esa resurslardan samarali foydalanish hisobiga hosildorlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar hisoblanadi. [10]

**XULOSA.** Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, agrar sohada innovatsiyalarni joriy etish muhim strategik yo'nalish sifatida belgilangan. FAO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihalar qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, raqamli texnologiyalar, zamonaviy sug'orish usullari va ekologik innovatsiyalarni tatbiq etish resurslardan samarali foydalanish va hosildorlikni oshirishga zamin yaratmoqda. Shu bois, innovatsion yondashuvlar agrotadbirkorlikning uzluksiz taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi.

#### Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi(lex.uz).
2. A.A. Черняев, В.А. Шибайкин. Механизм перехода к инновационному развитию агробизнеса // Научный журнал: Аграрный вестник Урала. 2010г. №9 (75) С-131.
3. Ibrohimov, Boburmirzo, and Sarvarbek Sayfiddinov. "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'paytirishning asosiy yo'llari." (2024).
4. Ibrohimov, Boburmirzo, and Abdulxamid Tursunov. "O'zbekiston Respublikasining agrar siyosati va uni takomillashtirish yo'llari." (2024).
5. Gulyayeva, Tatiana Ivanovna, et al. "Investing in innovation projects in Russia's agrifood complex." *Journal of internet banking and commerce* 21.S6 (2016):
6. Juma, Calestous. *The new harvest: agricultural innovation in Africa*. Oxford University Press, 2015.
7. Ramaz, Abesadze, and Burduli Vakhtang. "Innovative activities and their coordination under advancing globalization." *The Caucasus & Globalization* 3.4 (2009): 68-79.
8. Aubert, Jean-Eric. *Promoting innovation in developing countries: a conceptual framework*. Vol. 3554. World Bank Publications, 2005.
9. Ibrohimov, Boburmirzo. "O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarida innovatsion faoliyatning ahamiyati va o'rni." (2024).
10. [https://www.rshb.ru/news/premium-ultra/28122024-000001?utm\\_source=chatgpt.com](https://www.rshb.ru/news/premium-ultra/28122024-000001?utm_source=chatgpt.com)
11. [https://ria.ru/20231128/agrologisticheskiy\\_kompleks-1912483878.html?utm\\_source=chatgpt.com](https://ria.ru/20231128/agrologisticheskiy_kompleks-1912483878.html?utm_source=chatgpt.com)